

Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i,
yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim*



XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH, GENDER TENGLIGINI TA'MINLASH GRUZIYA TAJRIBASI MISOLIDA

Annotatsiya. Maqolada Gruzija Respublikasida inson huquqlari, oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, gender tengligi siyosati borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda, inson huquqlarini ta‘minlash yuzasidan davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining roli va hamkorligi haqida to‘xtalib o‘tiladi. Muallif maqolada bevosita o‘zi borib ko‘rishga muvaffaq bo‘lgan tashkilotlarning tajribalaridan misollar keltiradi. Shuningdek, O‘zbekistonda oila, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida inobatga olinishi mumkin bo‘lgan masalalar yuzasidan takliflar berildi.

Аннотация. В статье анализируются меры, принимаемые в Республике Грузия в отношении прав человека, поддержки семьи и женщин, политики гендерного равенства. Кроме того, будут обсуждаться роль и сотрудничество государственных органов и институтов гражданского общества в обеспечении прав человека. В статье автор приводит примеры из опыта организаций, которые удалось посетить. Также даются предложения по вопросам, которые могут быть учтены при поддержке семьи и женщин в Узбекистане.

Annotation. The article analyzes the measures taken in the Republic of Georgia regarding human rights, family and women’s support, gender equality policy. In addition, the role and cooperation of state bodies and civil society institutions in the provision of human rights will be discussed. In the article, the author gives examples from the experiences of the organizations he was able to visit. It also makes suggestions regarding the issues that can be taken into account regarding the support of the family and women in Uzbekistan.

Tayanch soʻzlar: *inson huquqlari, gender tengligi, erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlar, xalqaro huquq, genderga oid audit, barqaror rivojlanish maqsadlari, fuqarolik jamiyati, NNT.*

Ключевые слова: *права человека, гендерное равенство, равные права и возможности для мужчин и женщин, международное право, гендерный аудит, цели устойчивого развития, гражданское общество, ННО.*

Keywords: *human rights, gender equality, equal rights and opportunities for men and women, International law, gender audit, sustainable development goals, civil society, NGO.*

Krish. Gruziya Kavkazning gʻarbiy qismida, Qora dengizning sharqiy qirgʻogʻida joylashgan davlat. Sharqiy Yevropa va Gʻarbiy Osiyoga tegishli; koʻpincha Yevropa va Osiyo chorrahasida joylashgan davlat sifatida qaraladi. Geosiyosiy jihatdan zamonaviy Yevropaning bir qismi deb hisoblanadi. Aholisi 2014-yilgi rasmiy roʻyxatga olish natijalariga koʻra, 3,713,804 kishi, 2023-yil boshidagi hisob-kitoblarga koʻra – 3,736,400 kishi, hududi – 69,700. km². Aholi soni boʻyicha dunyoda – 130-oʻrinda. Poytaxti – Tbilisi. Rasmiy tili – gruzin. Gruziya unitar parlamentar respublikadir. Bu inson taraqqiyoti indeksi juda yuqori boʻlgan rivojlanayotgan mamlakat hisoblanadi. Mamlakat Yevropa Kengashi, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT), Yevrokontrol, Yevropa Tiklanish va Tarqqiyot Banki (YTTB) va Jahon savdo tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlarning aʼzosi hisoblanadi. Davlat Yevropa Ittifoqi va NATOga integratsiyalashuvga qaratilgan bir qator demokratik va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqda. 2018-yilning 16-dekabridan Salome Zurbishvili Gruziya Prezidenti lavozimini egallab kelmoqda.


Maqsad va uni asoslash. Gruziyaning gender tengligiga erishish boʻyicha siyosati oʻziga xos boʻlib, bu borada aniq yoʻnalishlar va chora-tadbirlar belgilab olingan va 2010-yilda “Gender tengligi toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilingan. Unda gender tengligi “inson huquqlarining bir qismi boʻlib, erkaklar va ayollarning shaxsiy hamda jamoat hayotining barcha sohalarida teng huquq va majburiyatlar bilan ishtirok etishiga taalluqlidir”, deb taʼrif beriladi. Bu 2011-, 2014- va 2016-yillarda tegishli Milliy Harakat rejalarini ishlab chiqishga turtki boʻldi, ular qatorida gender tengligini targʻib qilish, ayollar huquqlarini himoya qilish va oiladagi zoʻravonlikning oldini olish kabi ustuvor yoʻnalishlar belgilab olingan. Gruziya ayollarni zoʻravonlikdan himoya qilish boʻyicha asosiy xalqaro konvensiyalarni ham imzolagan. 1994-yilda Gruziya parlamenti Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish (CEDAW) toʻgʻrisida”gi Konvensiyasini ratifikatsiya qildi. Koʻp oʻtmay, 1995-yilda

Pekin Deklaratsiyasi va Harakatlar Platformasini imzoladi, bu gender tengligi bo'yicha asosiy institutsional mexanizmlarni yaratish uchun asos bo'ldi.

2011-yilda Gruziya Parlamenti BMT Xavfsizlik Kengashining "Ayollar, tinchlik va xavfsizlik" to'g'risidagi 1325-rezolyutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi Milliy Harakat Rejasini (MHR) qabul qildi. 2016-2017-yillarga mo'ljallangan ikkinchi MHR ishga tushirildi, bir yil muddatga va 2018–2020 uch yil muddatga mo'ljallangan uchinchi MHR qo'llandi. Ikkinchi MHR davomida Gruziya hukumati gender tengligi, ayollarga nisbatan zo'ravonlik va oilaviy zo'ravonlik bo'yicha idoralararo komissiyani tuzdi. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik bo'yicha tegishli milliy harakat rejalarini amalga oshirdi.

"Kamsitilishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Qonun Gruziya parlamenti tomonidan 2014-yilda qabul qilingan¹. Qonun kamsitilishning har qanday ko'rinishini yo'q qilishga qaratilgan muhim bosqich hisoblanadi, irqi, jinsi, oilaviy ahvoli va boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, Gruziya fuqarolari uchun teng huquqlarni ta'minlashni ko'zda tutadi. Bundan tashqari, 2014-yilda Gruziya "Ayollarga nisbatan zo'ravonlik va oiladagi zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha Yevropa Kengashi konvensiyasi"ni imzoladi, bu ko'proq Istanbul konvensiyasi deb nomlanadi².

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Jahon Bankining 2023-yilgi "Ayollar, biznes va qonun" indeksi hisobotiga ko'ra, Gruziya 88,1 ball bilan gender tengligi bo'yicha 5 ta ko'rsatkichda 100 ballik natijalarni namoyon qilmoqda.



¹ <https://matsne.gov.ge/en/document/view/2339687?publication=0>

² [https://documents1.worldbank.org/curated/en/407151616738297662/pdf/ Georgia-Country-Gender-Assessment.pdf](https://documents1.worldbank.org/curated/en/407151616738297662/pdf/Georgia-Country-Gender-Assessment.pdf)

***Xalq himoyachisi
(Ombudsman)
Gruziya hududida
inson huquqlari
va erkinliklarini
himoya qilishni
nazorat qiluvchi,
huquqbuzarlik
faktlarini
aniqlaydigan
va buzilgan
huquqlarni
tiklashga yordam
beradigan
konstitutsiyaviy
institutdir.***

Ushbu yutuqlar bilan bir qatorda Gruziyada gender tengligi borasida hali olib boriladigan ishlar borligini ko'rish mumkin. BMTning Taraqqiyot Dasturi baholashlariga ko'ra esa Gruziyada tazyiq va zo'ravonlik, gender bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar borligi qayd etilmoqda. Gruziyada ayollarning siyosatda faolroq ishtirok etishi uchun saylov kvotalari joriy etilgan, 2022-yilda Parlamentda ayollar ishtiroki 19 foiz va mahalliy boshqaruvda 24 foizni tashkil etgan³. Gruziyada erta nikohlar ham uchraydi. Gruziyada istiqomat qiluvchi ayollarning 14 foizi 18 yoshga to'lmisdan turmush quradi. Mazkur holat ko'proq qishloq joylarda uchraydi. 2017-yildan boshlab qonunchilikka kiritilgan o'zgartishlarga ko'ra, 18 yoshga to'lmisdan nikoh tuzish taqiqlangan⁴.

2020-yildagi qonunchilikka kiritilgan o'zgarishlarga ko'ra, Gruziyaning "Ayollarga nisbatan zo'ravonlik yoki maishiy zo'ravonlikning oldini olish, zo'ravonlik qurbonlarini himoya qilish va ularga yordam berish to'g'risida"gi Qonuni⁵ zo'ravonliklarga qarshi elektron kuzatuvni o'rnatish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ehtiyot chorasi chiqarilishi bilan zo'ravonlikning takrorlanishi real tahdidi mavjud bo'lgan taqdirda zo'ravonlik sodir etgan shaxs ustidan elektron kuzatuv o'rnatish imkoniyati yaratildi.

Xalq himoyachisi (Ombudsman)⁶ Gruziya hududida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni nazorat qiluvchi, huquqbuzarlik faktlarini aniqlaydigan va buzilgan huquqlarni tiklashga yordam beradigan konstitutsiyaviy institutdir. Gruziyaning xalq himoyachisi bu Gruziya hududida o'z yurisdiksiyasi doirasida inson huquqlari va erkinliklarining himoya qilinishini nazorat qiluvchi konstitutsiyaviy muassasa. U inson huquqlarining buzilishini aniqlab, buzilgan huquq va erkinliklarni tiklashga xizmat qiladi. Xususan, Ombudsman huzuridagi gender masalalari bo'yicha bo'lim qonun loyihalarini ishlab chiqishda hamda qonunchilik tashabbusida faol ishtirok etadi. 2013-yilda zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan qonunni qabul qilish jarayonida bo'lim tashabbus ko'rsatgan. Xuddi shuningdek, milliy harakat rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi. Shuningdek, Ombudsman tomonidan kelib tushadigan murojaatlar bo'yicha har bir arizachi ayol bilan individual ishlash yo'lga qo'yilgan, tahlil va monitoring olib boradi. Monitoringlar shelterlar va krizis markazlarida o'tkaziladi, u yerlarga rejadan tashqari tashriflar tashkil qilinadi. U yerdagi ayollar holati bilan tanishiladi, ular bilan suhbat qilinadi, so'ngra shelter ishchilari bilan gaplashiladi. Zo'ravonlik

³ <https://www.undp.org/georgia/gender-equality>

⁴ <https://georgia.unfpa.org/en/node/9658>

⁵ <https://matsne.gov.ge/en/document/download/26422/2/en/pdf>

⁶ <https://www.ombudsman.ge/eng>

sodir etgan shaxslarga maxsus kuzatuv “braslet”larini joriy qilishda ham bo‘linma tashabbuskorligi bor. Bugungi kunda bo‘linma femitsid masalalari bo‘yicha qator ishlar olib boradi.

Gruziyada fuqarolik jamiyatining institutlari faol hisoblanadi. Umuman olganda, Gruziyada nodavlat notijorat tashkilotini tashkil qilish uchun ko‘p vaqt sarflanmaydi, bir kunda elektron ro‘yxatdan o‘tish mumkin. NNTni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun manfaatdor shaxslar Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish milliy agentligining hududiy xizmatiga, Adliya bo‘limiga yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning vakolatli shaxslariga murojaat qilishlari kerak. Ariza ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng tezlashtirish xizmatidan foydalanilganda shu kunning o‘zida tashkil qilish mumkin.

Ana shunday faol tashkilotlardan biri “Sapari” nodavlat notijorat tashkiloti (NNT) hisoblanadi. “Sapari” NNT 2001-yildan beri adolatli, kamsitilmaydigan va zo‘ravonliksiz muhit yaratish tamoyilini o‘z faoliyatining asosi qilib belgilagan. Ushbu NNT Gruziyaning 5 ta hududiy birligida o‘z filialiga ega. Har bir filialda 5 tadan yurist faoliyat olib boradi. NNT Sapari butun mamlakat bo‘ylab ayollarga jismoniy, psixologik, jinsiy yoki iqtisodiy zo‘ravonlik bilan bog‘liq masalalarda himoyalaniish bo‘yicha yuridik yordam ko‘rsatadi. Shuningdek, u muntazam so‘rovlar o‘tkazadi, ijtimoiy kampaniyalar tashkil qiladi va jamiyatning ayollar huquqlari bo‘yicha xabardorligini oshirishga yordam beradi. “Sapari” xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda xalqaro sudga murojaat qilish va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro darajada huquqiy yordam ko‘rsata olish amaliyotini yo‘lga qo‘ygan, tashkilotning targ‘ibot va tashviqot yo‘nalishidagi ishlar videokliplar tayyorlashda, faollar, ayollar harakatlari bilan birgalikda jamoatchilik chiqishlarini olib boradi.

Gruziyada yana bir faol tashkilotlardan biri “Inson huquqlari markazi” hisoblanadi. U inson huquqlari bo‘yicha nodavlat tashkilot bo‘lib, uning maqsadi turli ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlariga, jumladan, ayollar va kamsitish qurbonlariga bepul yuridik maslahat va yuridik yordam ko‘rsatishdir. Markaz Gruziyada 25 yildan beri faoliyat olib bormoqda. Yevropa sudiga birinchi ishlarni olib chiqqan tashkilot hisoblanadi. Ularning faoliyati, shuningdek, inson huquqlari bo‘yicha ta‘limni yaxshilash va turli maqsadli guruhlar o‘rtasida xabardorlikni oshirishga qaratilgan. Ayollar huquqlarini himoya qilish va targ‘ib qilish, inson huquqlari sohasida xabardorlik va ta‘limni oshirish, gender va oilaviy zo‘ravonlik qurbonlarini qo‘llab-quvvatlash, tashkilotlar tomonidan ayollar huquqlaridan xabardorlikni oshirish va gender asosidagi zo‘ravonlikning oldini olishda qo‘llanadigan samarali usullarni qo‘llash, mutaxassislar tayyorlash dasturlarini tayyorlaydi.

Gruziyada yana bir faol tashkilotlardan biri “Inson huquqlari markazi” hisoblanadi. U inson huquqlari bo‘yicha nodavlat tashkilot bo‘lib, uning maqsadi turli ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlariga, jumladan, ayollar va kamsitish qurbonlariga bepul yuridik maslahat va yuridik yordam ko‘rsatishdir. Markaz Gruziyada 25 yildan beri faoliyat olib bormoqda.

***Gruziyada oilaviy
zo‘ravonlik
yo‘nalishida
ham xotin-qizlar
uchun boshpana
va reabilitatsiya
masalalari bilan
ish olib boruvchi
markazlar faol.
Bugungi kunda 6
ta shelter va 7 ta
inqiroz markazlari
faoliyat yuritadi,
ulardan biri
“Zo‘ravonlikka
qarshi tarmoq”
bo‘lib, u haftaning
7 kuni davomida
24 soat xotin-
qizlarga boshpana
beruvchi nodavlat
notijorat tashkiloti
hisoblanadi.***

Gruziyada oilaviy zo‘ravonlik yo‘nalishida ham xotin-qizlar uchun boshpana va reabilitatsiya masalalari bilan ish olib boruvchi markazlar faol. Bugungi kunda 6 ta shelter va 7 ta inqiroz markazlari faoliyat yuritadi, ulardan biri “Zo‘ravonlikka qarshi tarmoq” bo‘lib, u haftaning 7 kuni davomida 24 soat xotin-qizlarga boshpana beruvchi nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi. “Zo‘ravonlikka qarshi tarmoq” shelteri qonun ijodkorligi faoliyatidagi tashabbuslari, xususan, xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish va oilaviy zo‘ravonlik uchun javobgarlik belgilanishiga doir normalarni qonunchilikka kiritilishidagi faolligi, jabrlangan xotin-qizlar bilan ishlashda psixologik hamda huquqiy yordamning uyg‘unlikda tashkil etilgani, treninglar samaradorligini ta‘minlash yo‘llari, ma‘rifiy tadbirlar, psixologik yordamda ART terapiya metodidan samarali foydalanish yo‘llari, boshpana xizmati va onlayn huquqiy maslahatlar berish, oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘rgatish tajribasi bilan ajralib turadi. Shelter 20 kishiga mo‘ljallangan. Bu yerga joylashtirilgan ayollar va ularning farzandlari nafaqat kerakli yordamni olishadi, balki kelajakda hayotini yaxshilash, jamiyatga integratsiya bo‘la olishlari uchun pishiriq pishirish, sataroshlik kabi kasblarni egallashadi, pishiriqlar shelter qoshidagi do‘konda sotilishi yo‘lga qo‘yilgan. Shelter rahbari bergan ma‘lumotlarga asosan sotilgan mahsulotlardan tushgan mablag‘larni ayollar daromad sifatida o‘zlari oladilar. Ayollar bu yerda 6 oydan 9 oygacha yashashlari mumkin. Ularning farzandlari uchun turli xil to‘garaklar, dars va o‘yin xonalari mavjud. Xotin-qizlar tomonidan tayyorlangan taom, shirinliklar, shuningdek, rasm va qo‘l mehnati mahsulotlari ko‘rgazmasi tashkil etilgan.

Gruziyaning gender siyosati tahlili va ilmiy asoslari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, xalqaro iqtisodiyot maktabi (ISET) shunday ilmiy muassasalardan biri hisoblanadi. Institut 2011-yilning may oyida Tbilisi Davlat Universiteti qoshidagi tadqiqot markazi sifatida tashkil etilgan bo‘lib, iqtisodiy ta‘lim va ilmiy tadqiqotlar sohasida faol markazdir. ISET mustaqil siyosat tadqiqotlari, tahlillari va treninglarini ta‘minlaydi hamda kengroq akademik, siyosat va biznes hamjamiyatiga va keng jamoatchilikka taqdim etadi. ISET Siyosat Institutining asosiy tajriba yo‘nalishlari qishloq xo‘jaligi siyosati, makroiqtisodiy siyosat, energetika va atrof-muhit, gender tengligi, xususiyl sektorini rivojlantirish va inklyuziv o‘shishdir. Institut ushbu sektorlar doirasida muntazam indekslar va tahliliy nashrlar portfelini yuritib keladi. ISET tomonidan joriy yilda Regulyatsiya ta‘sirini baholash (RIA) hamda Gender tengligi siyosatining ta‘sirini baholash (GIA) metodologiyasi ishlab chiqilgan. Xususan, mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlari

uchun Regulyatsiya ta'sirini baholash (RIA) bo'yicha bepul asosiy kurslar o'tkazgan. RIA dalillarga asoslangan siyosatni ishlab chiqishning eng yaxshi mexanizmlaridan biri bo'lib, uni tayyorlash hukumat tomonidan 2020-yildan boshlab bir qator normativ hujjatlar uchun majburiy bo'lib qoldi. ISET Siyosat Instituti mahalliy hukumatga dalillarga asoslangan siyosat qarorlarini qabul qilish va siyosatning afzalliklarini maksimal darajada oshirishda yordam berish uchun ilmiy asoslangan siyosatni baholash vositasi sifatida RIAdan foydalanish tajribasi bilan o'rtoqlashib kelmoqda. Ayni damda Gender tengligi siyosatining ta'sirini baholash (GIA) masalasi ham dolzarbligi, bir siyosatni yoki qonunchilikni joriy qilishdan avval u jamiyatga o'zining qanday ta'sirini o'tkazadi degan savollarga javob berish lozimligi borasida harakat qilinyapti va bu borada ilmiy asoslangan xulosalar tayyorlamoqda.

Gruziyada yana bir yuridik yordam ko'rsatish yo'nalishida faol tizim bu Tbilisi yuridik yordam byurosi (Legal Aid Service) hisoblanadi. Yuridik yordam xizmati 2007-yilning iyul oyida tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunga kelib u yuridik yordam ko'rsatish byurolari va maslahat markazlari orqali deyarli butun mamlakatni qamrab olgan. Yuridik yordam xizmati butun Gruziyada o'z filial va byurolariga ega bo'lib, advokatlik xizmatlari uchun haq to'lay olmaydigan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga bepul yuridik yordam ko'rsatadigan tashkilot ekanligi bilan ajralib turadi.

Byuro bepul yuridik yordam orqali quyidagi xizmatlarni taqdim etadi:

- har qanday huquqiy masalalar bo'yicha bepul yuridik maslahat;
- huquqiy hujjatlarni tuzish (arizalarni topshirish, vositachilik qilish va h.k.);
- ayblanuvchi, mahkum va oqlangan shaxslarga jinoiy ish yuritishda bepul advokat xizmatlari, roziliksiz psixiatrik davolanish bilan bog'liq ishlar bo'yicha advokat xizmati;
- hibsga olishga olib kelishi mumkin bo'lgan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha advokat xizmatlari;
- jazoni ijro etish muassasalarida intizomiy javobgarlikka tortilgan ayblanuvchilar va mahkumlarga advokat xizmati;
- fuqarolik va ma'muriy huquqbuzarliklarning alohida ishlari bo'yicha bepul advokat xizmati;
- ma'muriy organlarda vakillik. To'lovga layoqatsizlik yuridik yordam xizmati o'z byurolari, maslahat markazlari va taklif etilgan pro bono advokatlar puli orqali bepul yuridik xizmat ko'rsatadi.

Ushbu tizimda 4 ta markaz va 14 byuro faoliyat olib boradi. Yo'nalishlarda advokatlar va konsultantlar faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.

Gruziyada yana bir yuridik yordam ko'rsatish yo'nalishida faol tizim bu Tbilisi yuridik yordam byurosi (Legal Aid Service) hisoblanadi. Yuridik yordam xizmati 2007-yilning iyul oyida tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunga kelib u yuridik yordam ko'rsatish byurolari va maslahat markazlari orqali deyarli butun mamlakatni qamrab olgan.

Gruziyada kompleks gender yondashuvining usul hamda vositalariga ham katta e'tibor beriladi. Ulardan biri genderga oid audit hisoblanadi. Gruziyada genderga oid audit mustaqil nodavlat tashkilotlardagi sertifikatlangan auditorlar tomonidan olib boriladi.

Tizimda uch yo'nalishda ishlar olib boriladi: jinoiy, ma'muriy va fuqarolik ishlari. Tashkilotda psixolog ham faoliyat olib borishi va huquqiy yordam ko'rsatishda ularning ham o'z o'рни va vazifasi bor. Unda yaratilgan yangilik bu mobil konsultatsiya markazlari bo'lib, ularni 3 oydan beri yo'lga qo'yish va chekka hududlardagi shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatish ishlari olib borilmoqda. Ushbu tashkilotda o'z ishining sifatini o'lchash bo'yicha monitoring va baholash yo'lga qo'yilgan, indikatorlar ishlab chiqilgan.

Gruziyada kompleks gender yondashuvining usul hamda vositalariga ham katta e'tibor beriladi. Ulardan biri genderga oid audit hisoblanadi. Gruziyada genderga oid audit mustaqil nodavlat tashkilotlardagi sertifikatlangan auditorlar tomonidan olib boriladi. 2010-yil 26-martdagi "Gender tengligi to'g'risida"gi Qonunining 12-moddasida Parlament tomonidan gender audit o'tkazish vakolati ko'rsatib o'tilgan. Gruziya parlamenti reglamenti va qonunchiligiga muvofiq, gender masalalari bo'yicha tizimli va muvofiqlashtirilgan ishni ta'minlash maqsadida Gruziya parlamentida Gender tengligi bo'yicha kengash tuziladi. Kengashning tarkibi, maqomi, funksiyalari va vakolatlari parlament qarori va parlament raisi tomonidan tasdiqlanadigan Gender tengligi bo'yicha kengashning normativ-huquqiy qoidalari bilan belgilanadi. Kengash quyidagi huquqlarga ega:

- gender tengligini ta'minlash bo'yicha harakatlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Gruziya hukumatiga taqdim etish, uning bajarilishini muvofiqlashtirish va monitoringini ta'minlash;
- gender auditini o'tkazish va qonun hujjatlarida mavjud bo'lgan gender nomutanosibliklarini bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- qonun loyihalarining gender ekspertizasini o'tkazish;
- maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va gender tengligiga, ayollar va erkaklarning teng huquqlardan foydalanishiga erishish uchun alohida tadbirlarni rejalashtirish;
- gender tengligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni monitoring qilish hamda baholash tizimini ishlab chiqish va institutsionallashtirish, shuningdek, tegishli tavsiyalar ishlab chiqish.

Yakuniy qism. Gruziya tajribasidan kelib chiqib quyidagi takliflarni keltirib o'tish mumkin:

1. Gender tengligi, xotin-qizlar masalalari bilan faoliyat olib boruvchi fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish, bunda nodavlat notijorat tashkilotlarni tuzish amaliyotini liberallashtirish, davlat hamda homiy tashkilotlar tomonidan ularni qo'llab-quvvatlash masalalariga e'tibor qaratish.

2. Qonun ijodkorligi va qonun loyihalarini tayyorlash, tashabbus ko'rsatish jarayonida ishtirok etishda fuqarolar, faollar, davlat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini yo'lga qo'yish, kengroq jalb qilish va ularning bu boradagi malakasini oshirish.

3. Bepul yuridik yordamning barcha uchun qulayligini ta'minlash maqsadida mobil yuridik xizmat markazlarini yo'lga qo'yish.

4. Tazyiq va zo'ravonlik, gender bo'yicha kamsitish yuzasidan sud-huquq amaliyoti tahlilini olib borish.

5. Oilaviy zo'ravonlikni sodir etgan shaxslar (agressor) bilan ishlashni yo'lga qo'yish, bu borada aniq harakatlarni amalga oshirish uchun psixolog hamda yurist juftligi ishini ta'minlash.

6. Zo'ravon shaxslarning jabrlanuvchiga yaqinlashishi va qayta zo'ravonlik sodir etishining oldini olishda elektron kuzatuv amaliyotini eksperiment tarzda qo'llash.

7. Shelter va krizis markazlari faoliyatini takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlarning bu shaklda faoliyat olib borayotganlarini qo'llab-quvvatlash hamda davlat organlari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash.

8. Sifatli psixologik kadrlarni tayyorlash va amaldagi oila psixologlarini zo'ravonlik sodir etgan shaxslar bilan tuzatish dasturlarida ishlash ko'nikmalarini yanada kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://matsne.gov.ge/en/document/view/2339687?publication=0>
2. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/407151616738297662/pdf/Georgia-Country-Gender-Assessment.pdf>
3. <https://www.undp.org/georgia/gender-equality>
4. <https://georgia.unfpa.org/en/node/9658>
5. <https://matsne.gov.ge/en/document/download/26422/2/en/pdf>
6. <https://www.ombudsman.ge/eng>

